

---

Qo'shtepa tumani bo'ylab harbiy-vatanparvarlik tadbirlari davom etmoqda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan o'tkazilayotgan harbiy-vatanparvarlik tadbirlari tumanimiz bo'ylab davom etmoqda.

Jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Yangi O'zbekiston armiyasi - mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!" shiori ostida o'tkazilayotgan tadbirlar davomida harbiy xizmatchilar va yoshlar o'rtasida davra suhbatlari tashkil etilmoqda. Ayniqsa, tadbirlar davomida harbiylarimiz tomonidan tashkil etilayotgan jangovor chiqishlar hamda qurol-aslaha namoyishi barchaga manzur bo'lmoqda.

2024-12-23 09:30:55